

# O'zbekistonda atom elektr stansiyasi qurilishi va uning xavfsizligi masalalari

Joriy yil 4-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi IIV Yong'in xavfsizligi institutida bo'lib o'tgan davra suhbat shunday nomlandi. Unda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Behzod Yuldashev Institut professor-o'qituvchilari, tinglovchi va kursantlariga mamlakatimizda energetika sohasida olib borilayotgan islohotlar, atom elektr stansiyasining qurilishi, uning afzalliklari haqidagi ma'rurasini taqdim etdi. Bundan tashqari, tadbirda O'zR FA akademiklari, Yadro fizikasi instituti yetakchi mutaxassislari, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining "Yadro fizikasi" kafedrasи vakillari ham qatnashdi.



Фото: ЎзР ИИБ Ёнгин хавфсизлиги институти ахборот хизмати



Фото: ЎзР ИИБ Ёнгин хавфсизлиги институти ахборот хизмати

O'zR FA prezidenti Behzod Yuldashev mamlakatimizda qurilayotgan atom elektr stansiyasida xavfsizlikni ta'minlash, bu borada Atom energiyasi bo'yicha Xalqaro agentlik (MAGATE) bilan hamkorlik, ushbu yo'nالishda malakali mutaxassislar yetishtirishda ta'lim tizimining takomillashuvi, energetika tizimining rivojlanishi kabi masalalarda atroflicha so'z yuritdi.

Ushbu davra suhbatni Institut professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlarining O'zbekistonda atom elektr stansiyasi qurilishi va uning xavfsizligi masalalari borasidagi bilim va amaliy ko'nikmalarini yanada oshirishga munosib xizmat qilishiga ishonamiz.